

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA O'RGATISHNING AHAMIYATI

Asrolova Muhayyo Olim qizi

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar

12-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka o'rgatish usullari, kichkinaligida kitob o'qib berilgan bolalarda til, tafakkur va hissiy intellektning yuqori darajada shakllanishini haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, tadqiqotda maktabgacha ta'limda mutolaa madaniyatini shakllantirish uchun strategik yondashuvlar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, rasmlar kitoblari, illustratsiya, kognitiv rivojlanish, empatiya, hissiy rivojlanish.

Abstract. The article presents information on methods of teaching preschool children to read, on the high level of development of language, thinking and emotional intelligence in children who are read to at an early age. The study also recommends strategic approaches to the formation of a reading culture in preschool education.

Keywords: children's literature, picture books, illustration, cognitive development, empathy, emotional development.

Kattalar bilan birgalikda kitob o'qish – so'z boyligini va til o'rganish jarayonini kuchaytirish bilan birga, hissiy yaqinlik va kognitiv faollikni ham oshiradi. . Kitob bolalarning hayotini aks ettiruvchi oyna va boshqa madaniyatlarni tanishtiruvchi deraza bo'lib xizmat qiladi. Kitob bilan doimiy aloqada bo'lgan bolalarda esa o'rganishga bo'lgan ishtiyoq, tanqidiy fikrlash, tildan ongli foydalanish, va matnni tushunish kabi kompetensiyalar shakllanadi. Bu nuqtai nazardan qaraganda, o'qish oddiy savod o'rgatish faoliyati bo'lib qolmay, balki interaktiv, va rivojlantiruvchi vositaga aylanadi. Jalongo (2004) ta'kidlaganidek, bolalarga ovoz chiqarib kitob o'qib berish – bu iliqlik, ifoda va insoniy aloqani o'zida mujassam etgan kuchli harakatdir.

Nevrologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning miyasining

90%i besh yoshgacha bo'lgan davrda rivojlanadi. Bu vaqt davomida miya tashqi ta'sirlarga nihoyatda sezuvchan bo'lib, bu davr til va kognitiv stimulyatsiya uchun eng maqbul davr hisoblanadi. Bolalarga bu davrda kitob o'qib berish uning nutqini va tushunish qobiliyatini oshiradi, xotiradagi neyron yo'llarni mustahkamlaydi.

2019-yilda Logan tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bolaga kichik yoshda kitob o'qib berish uning kelgusidagi o'quv faoliyati va kognitiv salohiyati va ijtimoiy-emotsional rivoji uchun hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, har kuni atigi bitta rasmlar kitob o'qilgan bola yil davomida taxminan

78 000 yangi soʻz bilan tanishadi. Bu bilimlar yillar davomida toʻplana borib, maktabga brogan paytda kitob oʻqib berilgan bolalar kitob oʻqib berilmagan tengdoshlariga nisbatan 1,4 millionta koʻproq soʻzni eshitgan boʻladi. Ushbu “million soʻzli farq” esa bolaning ogʻzaki va yozma nutqi, maktabga tayyorgarligi va kelgusidagi yutuqlariga sezilarli darajada ijobiy taʼsir koʻrsatadi. MRI tadqiqotlari shuni koʻrsatdiki, informatsiyani bosma materiallar, kitoblar orqali oladigan bolalarda vizual tasavvur va tushunishga yordam beruvchi miya toʻqimalarida faollik kuchaygan.

6Aksincha, raqamli mediaga mukkasidan ketgan olalarda savodxonlik uchun muhim boʻlgan miya qismlarining yupqalashishi kuzatilgan.

Kognitiv rivojlanishidan tashqari, oʻqish bolaning ijtimoiy-hissiy oʻsishiga ham kata hissa qoʻshadi. Kitoblar bolalarga his-tuygʻularni tushunish, ifodalash va boshqarishda yordam beradi. Kitoblar hissiy oʻrganish vositasi sifatida xizmat qilib, hikoyalar orqali bolalarga quvonch, qoʻrquv, gʻazab, hasad yoki hamdardlik holatlarini tushuntiradi.

Jalongo kitoblarni bolalar uchun “hissiy laboratoriya” deb ataydi. Qahramonlarning histuygʻ ulari va ularning muammoarni qanday hal qilishini kuzatish orqali bolalar oʻz histuygʻ ularini boshqarishni oʻrganadilar. Bundan tashqari, birgalikda kitob oʻqish bolada yaqinlari bilan iliqlikni va oʻziga ishonch hissini shakllantiradi Bunday hissiy jihatdan oziqlantiruvchi tajribalar chidamlilik, empatiya va ijtimoiy qobiliyatni rivojlantiradi.

Kitoblar turli madaniyatlar, turlicha turmush tarzi va tajribalar bilan tanishtirib, globallik tushunchasini va inklyuzivlikni kuchaytiradi. Bu kabi tasvirlar bolalarda oʻzini boricha qabul qilish hissini qaror toptirib, boshqalarga nisbatan hurmatni kuchaytiradi. Empatiya, oʻqish orqali rivojlanganida, nafaqat shaxsiy munosabatlar uchun, balki jamoaviy taʼlim muhitida ham muhim ahamiyatga ega boʻladi.

Bolalar uchun badiiy asar tanlash jarayonida faqatgina mavzuning dolzarbligi yoki illyustratsiyalarning estetik jihatdan chiroyliligi yetarli boʻlmaydi. Asarning mazmuni, asar tilining ravonligi, bolaning yoshiga mosligi hamda madaniy kontekst bilan uygʻunligi kabi omillar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Aks holda, stereotiplarga asoslangan, bolani ishontira olmaydigan, bolada hech qanday hissiyot uygʻotmaydigan yoki notoʻgʻri axloqiy signal beruvchi matnlar bolada notoʻgʻri tasavvurlar shakllanishiga sabab boʻlishi mumkin.

Zero, bolalar kitoblari ular uchun dunyoni anglash, hayotiy tushunchalar va qadriyatlarni shakllantirishda vosita vazifasini bajaradi. Shu bois, ushbu asarlarda tasvirlangan syujetlar, xarakterlar va yakunlar ijobiy, tushunarli va rivojlantiruvchi xususiyatlarga ega boʻlishi zarur.

Bank Street College of Educationda oʻtkazilgan tadqiqotda taʼkidlanganidek, sifatli bolalar adabiyoti bir necha asosiy xususiyatlarga ega boʻlishi kerak: mantiqiy, aniq va izchil syujet tuzilmasi, boy va obrazli tili, original va turfa xarakterdagi qahramonlar, bolalarning kundalik hayotiga yaqin mavzular hamda badiiy va estetik jihatdan yuqori darajadagi illyustratsiyalar.

Shuningdek, ko'p tilli va madaniyatlararo xilma-xillik kontekstida yashayotgan bolalar uchun o'qish jarayonida madaniy moslik prinsipiga amal qilinishi ayni muddaodir. Bunday yondashuv bolalarning nafaqat o'z milliy madaniyatiga bo'lgan hurmatni mustahkamlash, balki boshqa xalqlar va qadriyatlarni qadrlash kabi transmadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshida o'qish — bu shunchaki passiv tinglash emas, balki savollar, munozaralar va fikr almashinuv jarayonidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar bilan o'qish vaqtida savollar berish, ularni fikrlasha va voqealar rivojini taxmin qilishga undash kabi usullar tanqidiy fikrlash va til kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan: “Nima deb o'ylaysan, keyin nima bo'ladi?” “Bu qahramon nima uchun shunday qildi, deb o'ylaysan?”, “Sen bu holatda nima qilgan bo'larding?” kabi savollar bolada tanqidiy fikrlash va o'z fikrini ifoda qilish qobiliyatlari rivojlantiradi.

Dialogik o'qish deb ataluvchi uslub bolani shunchaki ma'lumotlarni qabul qiluvchi passiv tinglovchidan o'z fikrini bildiradi oladigan faol suhbatdoshga aylantiradi. Har bir sahifani birga ko'rish, rasm va matn ustida ishlash, tovushlar bilan ifoda qilish – bularning barchasi mutolaa madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi raqamli asrda ekranlar bolalarning hayotida tobora ko'proq o'rin egallamoqda. Mobil telefonlar, planshetlar va televizorlar ko'pincha ma'lumot beruvchi vosita sifatida kitoblarning o'rnini egallab oladi. Ammo tadqiqotlarga ko'ra, haddan tashqari ko'p vaqtini televizor, you tube ko'rishga srfadigan bolalarda diqqat yetishmovchiligi, so'z boyligining pastligi va hissiy regulyatsiyada muammolar kuzatiladi. Bu esa keyingi davrda sog'lom kognitiv va emotsional rivojlanish uchun xavf tug'diradi.

Bundan tashqari, kitob sotib olishga bo'lgan imkoniyat ham teng taqsimlanmagan — iqtisodiy jihatdan nochor oilalarda, chekka hududlarda yoki ta'lim sifati past hududlarda kitob resurslari juda cheklangan. Bu esa “o'qish tengsizligi”ni kuchaytiradi va natijada bilimlar bo'yicha tafovut ortib boradi.

Bu muammolarni yengish uchun jamoat kutubxonalari, maktablar va nodavlat tashkilotlar o'zaro hamkorlikda ishlashlari lozim. Mobil kutubxonalar, ota-onalarni o'qishga rag'batlantirish dasturlari va bolalar uchun bepul kitob tarqatish tashabbuslari bu borada ijobiy o'zgarishlar keltirishi mumkin.

Xulosa. Bolaning maktabgacha bo'lgan davri – bu o'rganish, his qilish va shakllanish davridir. Ushbu bosqichda kitoblar bolaning tafakkuri, tili va qalbini boyituvchi eng kuchli vositalardan biridir. O'qish nafaqat savodxonlikni oshiradi, balki empatiya, tanqidiy fikrlash, turli madaniyatlarni tushunish va hissiy barqarorlikni ham shakllantiradi. Shu bois, mutolaa madaniyatini kichik yoshdan boshlab shakllantirish, ota-onalarni jalb qilish, sifatli va madaniy jihatdan mos kitoblarni targ'ib qilish hamda o'qishga teng imkoniyatlar yaratish har qanday jamiyat uchun ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Zero, har bir o'qilgan sahifa – bu bolaning tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiluvchi, kelajak avlodni ilm-ma'rifat sari yetaklaydigan muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Armbruster, B. B., Lehr, F., and Osborn, J. (2006). Put Reading First: The Research Building Blocks for Teaching Children to Read. National Institute for Literacy.
2. Bank Street College of Education. (2017). Guide to Quality Children's Literature.
3. Center on the Developing Child at Harvard University. (2010). The Foundations of Lifelong Health Are Built in Early Childhood.
4. Christakis, D. A., et al. (2004). "Early Television Exposure and Subsequent Attentional Problems in Children." *Pediatrics*, 113(4), 708–713.
5. Hutton, J. S., et al. (2022). "Home Reading Environment and Brain Activation in Preschool Children Listening to Stories." *Pediatrics*, 145(4).
6. Jalongo, M. R. (2004). Young Children and Picture Books: Literature from Infancy to Six. NAEYC.
7. Umaraliyev M.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka jalb qilish yo'llari. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=9884824449205389662&btnI=1&hl=ru>
8. Umaraliyev M.M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. <https://sciencepromotion.uz/index.php/sp/article/view/79>
9. Azizova Ziroat "The content of children's preparation for school in preschool educational organizations". *Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj)* 78-80 b 2024
10. A.Z. Baxodirovna "Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati", *Science and innovation* 3 (special issue 31), 34-37 2024y
11. AZ Baxodirovna "Sharq matematik olimlarining asarlarida arifmetikaning rivojlanishi", *Science and innovation* 3 (special issue 31), 455-460b 2024y
12. P.F. Миннуллина, А.Р. Нуриева, З.Б. Азизова "Подготовка будущих воспитателей в полилингвальном образовательном пространстве" *Science and innovation* 3 (special issue 31), 88-91 2024y
13. A.Z. Baxodirovna, "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnatni tashkil etish shakllari" *Science and innovation* 3 (special issue 31), 38-44 2024y
14. З.Б. Азизова, З.А. кизи Абдуразакова "Болаларда халқ оғзаки ижоди воситасида миллий ғурур хиссини шакллантиришда оиланинг ўрни» *International conference of education, research and innovation* 1 (2), 50-62 2023
15. Muminova, G. "HONORARY WOMEN IN UZBEK ART." *Science and Innovation* 1.6 (2022): 244-247.